

**JADIDCHILIK HARAKATINING YUZAGA KELISHI
VA TURKISTONDA TARQALISHI, YANGI FIKR VA IJTIMOIIY
QARASHLARNING SHAKLLANISHI**

Boltayev Izzatbek Xurmatbek o‘g‘li

Urganch davlat universiteti Magistratura bo‘limi Tarixshunoslik, manbashunoslik
va tarixiy tadqiqot usullari yo‘nalishi 2-kurs magistranti

E-mail: izzatbek5696@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jadidchilik atamasining paydo bo‘lishi, Turkistonga kirib kelishi va xalq ma’naviyatini tiklash, ma’rifatparvarlik g‘oyalarining targ‘ib qilinishi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Jadid, Nizomi jadid, Fransiya, Turkiya, “Yosh buxoroliklar”, “Yosh xivaliklar”, “Yosh turkistonliklar”, Ismoil Gaspirali, Usuli jadid.

**THE EMERGENCE AND SPREAD OF THE JADIDISM MOVEMENT IN
TURKESTAN, THE FORMATION OF NEW IDEAS AND SOCIAL VIEWS**

ABSTRACT

This article provides information about the emergence of the term Jadidism, its introduction into Turkestan and the promotion of the ideas of revival of the people's spirituality and enlightenment.

Key words: Jadid, Nizami Jadid, French, Turkey, “Young Bukharas”, “Young Khiva”, “Young Turkestans”, Ismail Gaspirali, Usuli Jadid.

XIX asrning oxiri XX asrning boshi jahon sivilizatsiyasining taraqqiyotida keskin burilishlar davri bo‘ldi. Bu davrda chuqur islohotlar, birinchi va ikkinchi jahon urushi

bo‘lib, ilm-fan taraqqiyotida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bir jamiyatning butunlay yot jamiyat ta‘sirida qolishi nafaqat hayotda, balki kishilarning falsafasida ham inqilob yasadi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Markaziy Osiyoda ham boshqa mintaqalarda bo‘lgani kabi o‘zgacha fikrlovchi, yangicha qarash vakillari shakllanib bordi.

XIX asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy tuzum qoloq, fuqarolarning turmush tarzi o‘ta past, madaniy-ma‘naviy hayotida islom dini peshvolarining ta‘siri kuchli edi. Insonlar dunyoqarashida tasavvuf falsafasi an‘analarini tiklashga intilish kuchayib borayotgan bir vaziyatda unga qarshi kuchlar bilan tafovutlar kelib chiqdi.

“Jadid” atamasining kelib chiqishiga qaraydigan bo‘lsak bu atama birinchi marta Turkiyada Sulton Salim III hukmronligi (1739-1802) davrida paydo bo‘ldi. Sulton Salim III tomonidan Avstriyaga elchi qilib yuborilgan Abubakr Ratib afandi shohga yozgan bildirishnomalarida u yerda ko‘rgan idora tizimini “Nizomi jadid” deb tushuntiradi. Shuningdek Fransiyada 1789-yilgi Fransuz inqilobidan keyin qurilgan yangi tizimni “Fransiya nizomi jadidi” deyila boshlandi. Shu yillari “Nizomi jadid” tor ma‘noda askariy tizimni yevropalashtirishni, keng ma‘noda ilm-fan, maorif, sanoat va qishloq xo‘jaligini zamonaviylashtirishni ko‘zda tutar edi.

Demak, jadid atamasi yangilik tarafdorlarini, yangilik g‘oyalarini ifoda etuvchi tushuncha sifatida qo‘llanilgan. XIX asrning oxirlarida dunyo tamaddunida bo‘layotgan ulkan madaniy –ma‘rifiy, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, yangi munosabatlar u yoki bu tarzda sekinlik bilan bo‘lsada Turkiston o‘lkalariga kirib kela boshladi.

XX asrning boshida shakllanib, qisqa muddatda o‘zining cho‘qqisiga ko‘tarilgan. Jadidlik 1917-yilgi bolsheviklar to‘ntarishidan keyin ham sotsialistik diktatura o‘rnatilgunga qadar o‘z mavqei va yo‘nalishini saqlab qola olgan ijtimoiy harakatdir. Ba‘zi manbalarda jadidlik oqim deb atalsa, ba‘zisida harakat deb aytiladi.

Begali Qosimov jadidlik oqim emas, harakat deb ta'kidlaydi.¹ Ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy harakat yaqingacha ham ataylab faqat ma'rifatchilik harakati deb kelindi. Maqsad jadidlikning doirasini toraytirish, sotsialistik-kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi. Begali Qosimov jadidlik harakatining xarakter va muddaosini 3 turga bo'lib izohlaydi:

- Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qildi.

- Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g'ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko'rgan Turkiston muxtoriyati bu yo'ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi.

- Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi.

Bu xarakter va yo'nalishni qator olimlar e'tirof etdi. Bugungi kunda jadidlarni olib borgan ishlari keng jamoatchilik o'rtasida turli xil bahslarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Turkistonda jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Rusiya musulmonlari, xususan, Kavkaz va Volga bo'yida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik harakatining bevosita ta'siri va samarasi sifatida dunyoga keldi.

Bu davrga kelib ilm-fan, xususan tabiiy fanlar chuqur tanazzulga yuz tutdi. Ilmning musulmon mutaassibliigi bilan birga qabul qilgan tor, sxolastik yo'nalishi madrasalarni haqiqiy ilm bilan aloqasini yo'qotgan va Yevropa ta'lim tizimlari asoslarini inkor qiluvchi muassasaga aylantirar ekan, hamma narsani vayron qildi.

Sharq bilan G'arbni taqqoslab musulmonlar va turkiylar dunyosi, xususan Rossiya tasarrufiga olingan musulmonlarning jahon taraqqiyotidan uzilib qolayotganini qrim-tatar farzandi Ismoil Gaspirali (1851-1914) birinchi bo'lib angladi. U turkiy xalqlardagi jaholatni yo'q qilish, ma'naviyat-ma'rifat orqali taraqqiy topgan mamlakatlar darajasiga ko'tarilish harakatini boshlab berdi. Ismoil Gaspirali maorifni isloh qilish, maktablarda dunyoviy fanlarni o'qitish masalasini ko'tardi. U 1884 yilda

¹ Qosimov. Milliy uyg'onish: Jasorat, ma'rifat, fidoiylik. –T., Ma'naviyat, 2002.

Qrimdagi Boqchasaroy shahrida jadid maktabiga asos soldi. «Jadid» arabcha soʻz boʻlib «yangi» degan maʼnoni bildiradi. U oʻzi tashkil etgan maktab oʻquvchilari uchun oʻquv dasturi tuzdi va darsliklar yozdi. U 40 kun ichida 12 oʻquvchining savodini chiqarib, tezda shuhrat qozondi. «Tarjimon» gazetasini chiqarib, oʻz gʻoyalari yoydi. 1888 yilda «Rahbari muallimin yoki muallimlarga yoʻldosh» kitobini nashr etib, jadid maktablarining qurilishi, dars oʻtish mazmuni, jihozlanishi, sinov va imtihonlar olish usullarini bayon etib berdi. Ismoil Gaspirali gʻoyalari Turkistonga ham kirib keldi. 1893 yilda U Turkistonga kelib, ilgʻor ziyolilar bilan uchrashdi, Buxoro amiri huzurida boʻlib bitta jadid maktabi ochishga rozilik oldi. Turkistonlik ziyolilar jadidchilikni yoqlab maorifni isloh qilish, «Usuli jadid» maktablarini tashkil etishga kirishdilar. 1898 yilda Qoʻqonda Salohiddin domla, 1899 yilda Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabiga asos soldilar. 1903 yilda Turkistonda 102 ta boshlangʻich va 2 ta oʻrta jadid maktablari faoliyat koʻrsatdi. Turkiston jadidlariga Mahmudxo ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqa oʻnlab milliy ziyolilar rahnamolik qildilar. Ular dastlab maorifni isloh qilish yoʻlidan bordilar. «Usuli jadid» maktablari tarmogʻi kengayib bordi, ularda diniy taʼlimot bilan birga tibbiyot, hikmat, kimyo, nujum, handasa kabi dunyoviy bilimlar oʻrgatildi, savod chiqarish tezlashtirildi.

Bu harakatning jadid deb atalishi haqida Abdulla Avloniy “Shul zamonda (1894-1904 yillar) yerli xalqlar orasida eskilik-yangilik (qadim-jadid) janjali boshlandi. Gʻazit oʻqigʻuvchilarni mullalar “jadidchi” nom bilan atar edi”², degan fikrni keltiradi.

Jamiyatni maʼnaviy-maʼrifiy yangilashdan koʻzlangan bosh maqsad – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik, diniy bagʻrikenglik kabi koʻpdan-koʻp muhim masalalardan iborat.

Oʻzbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov: “Men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo xalokat, yo saodat, yo falokat

² Qosimov. Milliy uygʻonish: Jasorat, maʼrifat, fidoiylik. –T., Maʼnaviyat, 2002.

masalasi”, degan fikrini ko‘p mushohada qilaman. Buyuk ma’rifatparvarning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham muhim va dolzarbdir”,³ yoki Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» dasturidan yoshlarimizni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash masalasi alohida o‘rin egallashi tabiiydir. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug‘ ajdodimiz nima deb yozganlar: «Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-xurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq». Qarang, qanday bebaho, oltinga teng so‘zlar!»⁴ deganlarida jamiyat taraqqiyoti uchun tarbiyaning va ta’limning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlagan edilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki Ismoil Gasprilaning yaratgan jadidchilik g‘oyalari Turkiston uchun muhim hodisa bo‘ldi. Uning tasirida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik g‘oyalari xalqning ma’naviy qoloqlik botqog‘idan chiqishiga va uyg‘onishiga asos bo‘lgan.

Tarixchilarimizning hozirgi kundagi dolzarb vazifalaridan biri, o‘tmishimizdagi har bir hodisa va voqea ma’lum ijtimoiy-siyosiy, g‘oyaviy muhit ta’sirida yuz berganligini hisobga olgan holda, asosli hujjatlarga tayanib, ushbu voqea, hodisalarni har tomonlama chuqur o‘rganish hamda tahlil qilishdan iboratdir. O‘z davrida jadidlar ko‘targan muammolar, bugungi kunimiz uchun ham hamohangdir. Millatni ma’naviyatini yuksaltirish hamma davrdan ham muhim hisoblangan.

³ Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. - T.: “Sharq”, 1999.

⁴ Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan marosimdagi ma’ruzasi. 08 dekabr 2016.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Qosimov. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma’rifat, fidoiylik. –T., Ma’naviyat, 2002.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. - T.: “Sharq”, 1999.
3. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan marosimdagi ma’ruzasi. 08 dekabr 2016.